



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

FOLKLOR DISKURSIDA SEMIOZIS PRESUPPOZITSIYASI

Abduvahobova Mahina Azatovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Semiozis – bu belgilarni yaratish va ishlash jarayoni– boshqa obyektlarni belgilash, ifodalash yoki almashtirish uchun ishlatiladigan mavhum yoki moddiy obyektlar majmui. Semioz belgilar va belgi tizimlar haqidagi maxsus fanda – semiotikada o‘rganiladigan mavzudir. Presuppozitsiya matn mazmunining tarkibiy qismi sifatida tushunish mumkin, bu nisbiy bilimlardan kelib chiqadi, bunda matnni yetarlicha idrok shart emas, u odatda og‘zaki ifodalanadi. Bunday bilimlar yuzadagi (fon) bilimlar deb ataladi. Presuppozitsiya odatda boshqa matnni o‘qiyotganda paydo bo‘lishi mumkin yoki u matnlarda umuman ifodalanmasdan shunchaki muallifning ongida paydo bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: diskurs, semiotika, presuppozitsiya turlari, narrator, folklor..

ПРЕСУППОЗИЦИЯ СЕМИОЗИСА В ФОЛЬКЛОРНОМ ДИСКУРСЕ

Абдувахабова Махина Азатовна

Узбекский государственный университет мировых языков, доцент (PhD)

Аннотация

Семиозис – это процесс создания и работы со знаками –совокупностью абстрактных или материальных объектов, используемых для обозначения, представления или замены других объектов. Семиозис – это тема, изучаемая в специальной науке о знаках и знаковых системах – семиотике. Пресуппозицию можно понимать как компонент содержания текста, возникающий из относительного знания, для которого не требуется достаточного восприятия текста, оно обычно выражается вербально. Такое знание называется поверхностным (фоновым) знанием. Пресуппозиция может возникать, как правило, при чтении другого текста, или же она может просто возникать в сознании автора, не будучи выраженной в тексте вообще.

Ключевые слова: дискурс, семиотика, типы пресуппозиции, рассказчик, фольклор.

SEMIOSIS PRESUPPOSITION IN FOLKLORE DISCOURSE

Abduvahobova Mahina Azatovna

Uzbekistan State World Languages University, Associate Professor (PhD)

Abstract

Semiosis is the process of creating and working with signs—a set of abstract or material objects used to denote, represent or stand in for other objects. Semiosis is a subject studied within the specialised science of signs and sign systems—semiotics. Presupposition can be understood as a component of a text’s content arising from relative knowledge, for which sufficient comprehension of the text is not required; it is usually expressed verbally. Such knowledge is called surface (background) knowledge. Presupposition may generally arise when reading another text or it may simply arise in the author’s mind without being expressed in the text at all.

Keywords: discourse, semiotics, types of presupposition, narrator, folklore.

“Semiozis” atamasi, aftidan, birinchi marta Pergamonlik yunon shifokori Galen (milodiy 139–199) tomonidan ishlatilgan bo‘lib, u semiozis atamasini kasallik alomatlarini talqin qilish uchun qo‘llagan. “Semiozis” tushunchasi XX asrda belgilar va belgi tizimlariga qiziqishning ortishi tufayli ommalashdi. Semiozisning zamonaviy konsepsiyalari belgining tabiati va uning tatbiq etilishini tushunishga, shuningdek, semiozisning mos modellarini ishlab chiqishga turli yondashuvlardan kelib chiqqan holda shakllandi. Semiotikada semiozisning turli modellari ishlab chiqilgan. Umumiy semiotik model semiotik tizimlarning iyerarxik tabiatiga asoslanadi, bunda iyerarxiyaning yuqori qatlamlari pastki sathlariga bo‘ysunadi. Semiozisning quyidagi darajalari ajratiladi: fiziosemiozis (jonsiz tabiatda), biosemiozis (tirik organizmlarda), fitosemioz (o‘simlik dunyosida), zoosemioz (hayvonot dunyosida) va antroposemioz (inson sotsiomadaniy hamjamiyatida).

Tadqiqotimizda folklor diskursi tarkibidagi semiozislarning presuppozitsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Masalan, folklor semiozislardan:

Chol: “Ochil, supram!” – desa, noz-ne’matlar paydo bo‘libdi... “Gazla, gazim!” desang, shoyi, atlas gazlab tashlaydi... “Pishdi palov”, desa, ustida go’shti bilan osh pishiribdi... “Chiq qovoqdan!” desa, bir narsa chiqib haligi cholni urib, hamma yog‘ini yoribdi. “Kir qovoqqa!” degandan keyin qovoqqa kiribdi.

“Up stick and bang them!” exclaimed Jack; whereupon the cudgel leaped up, and running along the line of girls, knocked them all on the heads and left them senseless on the pavement...

“Come, my table, be covered!” At once the table was spread with turkey and sausages, roast mutton, potatoes, and greens.

Presuppozitsiya: supra — noz-ne’matlar, tovoq — ovqat, qovoq — kaltakning majoziy-simvolikasi.

Presuppozitsiya aytilgan gapning semantik tarkibiy qismi bo‘lib, uning haqiqat qiymatini belgilaydi [2]. Presuppozitsiya nutqiy ta’sirning eng keng qo‘llaniladigan usullaridan biridir. Ular faqat kerakli xulq-atvor variantlarida mavjud bo‘ladi. Masalan, “Ertaga qachon uchrashamiz?” iborasida uchrashish yoki uchrashmaslik haqida tanlov yo‘q, yagona savol “qachon” bo‘ladi. Agar suhbatdosh bu haqiqatni qabul qilsa, u albatta uchrashuvga boradi. George Yule presuppozitsiyaning ekzistensial, faktiv, nofaktiv, leksik, struktur va kontrfaktiv kabi turlarini ajratadi [1]. Agar Dj. Yulening tasnifi bo‘yicha presuppozitsiya hodisasini tahlil qiladigan bo‘lsak, u quyidagicha namoyon bo‘ladi.

EKZISTENSIAL PRESUPPOZITSIYA (faraz ot bilan bog‘liq birikmalar orqali anglashiladi)

Podsho kulib:

— Sen ahmoq ekansan, xotinlarning so‘ziga ishonib bo‘ladimi?

Presuppozitsiya: oila qurgan, turmushida rafiqasi borligiga ishora.

“Jack’s mother sent him to the market.”

Presuppozitsiya: Djekning onasi borligiga ishora.

FAKTIV PRESUPPOZITSIYA (taxmin fe‘lli birikma orqali ifodalanadi)

“Bir bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, burungi zamonda...”

Presuppozitsiya: voqea sodir bo‘lgan makon va zamon aniq emasligiga ishora qiladi.

“There they found the old hag bleeding, and covered with wounds, and still out of breath.”

Presuppozitsiya: haqiqatan ham sehrgar yalmog‘iz yaralangan edi.

LEKSIK PRESUPPOZITSIYA (fe‘l shakllari faollashgan)

Tulki:

— Meni izlab sarson bo‘lma, agar juda topmoqchi bo‘lsang, temir choriq kiyib, temir hassa tayanib izlaysan. Hassang ignaday, chorig‘ing qog‘ozday bo‘lib qolsa, shundagina topasan.

Presuppozitsiya: xato qilib uni tuzatish uchun mashaqqatlarni yengib mukofotga ega bo‘lish norma hisoblanadi.

“The giant returned to the castle.”

Presuppozitsiya: dev avval qasrda bo‘lgan.

Folklor diskursida sarlavhalar presuppozitsiyasi jins faktori bo‘yicha quyidagicha tadqiq etildi.

1-jadval

Folklor diskursida sarlavhalar presuppozitsiyasi

Presuppozitsiya turi	Misol	Presuppozitsiya
Ekzistensial-ijtimoiy	Jovur chol, Quloqboy, Bo‘z bola, Mahmud yamoqchi, Nurilla boyvachcha, Noshud bola, Boy bilan novcha, Zolim podsho, O‘pka qishlog‘i, Dehqon, Kanizak bilan podsho, Tentak podsho, Xasis boy bilan Abdurahmon o‘g‘ri, Alvasti, Avom folchi, Yetti ahmoq, Garang, Chol bilan kampir, Mulla Tappak, Zulhumor, <i>Mr. Fox, Mr. Miacca, Lazy Jack, Jack the Giant Killer, The Princess of Colchester, Earl Mar’s Daughter, The Green Children, Boggart</i>	Substantiv sodda presuppozitsiyalar bo‘lib, diskurs mazmuni sarlavhadan oson anglashiladi hamda ijtimoiy-maishiy mazmunga ega
Faktiv-didaktik	<i>Bola – podshodir; Tan sihatlik – tuman boylik; Outwitting the Bogie; How Jack Went to Seek His Fortune</i>	Predikativ birikmali bo‘lib, tarbiyaviy-didaktik ahamiyatga ega
Nofaktiv	<i>Dunyoda yo‘q hunar; Nix Nought Nothing; The Well of the World’s End</i>	Mo‘jizaviy syujetni o‘z ichiga oladi, real turmush

		voqealaridan yiroq
Strukturaviy	<i>Oltmish og'iz yolg'on gap; Uch yolg'onda qirq yolg'on; Betty Childey the Witch; Stupid's Mistaken Cries</i>	Murakkab strukturali, vaziyatga qarab to'qima hodisalarni qamrab olgan
Kontrafaktiv	<i>Kulsa gul, yig'lasa dur</i>	G'ayritabiiy, mo'jizakor hodisalardan iborat, shart mayli orqali yasalgan

Erkak narratorialari diskursida sarlavha shu darajada mohirona tanlanganki, u bir so'zdan iborat bo'lsa, albatta, qahramonlik syujetlariga ishora qiladi hamda voqea-hodisalar sarlavhada ismi keltirilgan bosh qahramon atrofida sodir bo'ladi. "Va", "bilan" bog'lovchilari orqali bitishuv yo'li bilan yasalgan sarlavhalar presuppozitsiyasida esa erkak narratorialar maishiy-ijtimoiy masalalarni ismi keltirilgan ikki qahramon atrofida tasvirlaydilar (*The Parson and Clerk, The Witch and the Toad, Witch and Hare, The Fisherman and Piskies*).

Boshqaruv munosabatida (sifat + ot ko'rinishli) yasalgan sarlavhalarda esa bosh qahramonning ijtimoiy hamda ma'naviy yoki moliyaviy sifatleri, holatidan biri markaziy tugun sifatida gavdalanadi: *The Fairy Funeral, The Two Serving Damsels, The Tulip Bed, The King of the Cats*.

O'zbek ayol narratorialrigidagi folklor diskursining sarlavha presuppozitsiyasi esa erkaklarnikidan birmuncha farq qiladi. Bunda keltirilgan sarlavha presuppozitsiyasidan folklor diskursi syujetini anglab olish birmuncha mushkuldir. Masalan, boshqaruv munosabatida yasalgan sarlavhalar bir qahramonning ijtimoiy mavqei va munosabatlarini yoritmaydi, u kumulyativ holatda bir necha bosh qahramonlarni qamrab oladi: *Besh qiz, Qiron aka, Kenja o'g'il*.

Ingliz narratorialari folklor diskursida esa sarlavhalar presuppozitsiyasi o'zbek erkak narratorialrigidagi kabi bir xil, ya'ni sarlavha mazmunidan diskurs mazmunini to'liq anglash mumkin bo'ladi. Bu yerda yagona nominativ yoki bosh qahramon ism-sharifidan iborat sarlavhalar asosan qahramonlik syujetini (*Tom Tit Tot, Jack Hannaford, Molly Whuppie*) yoki bosh qahramon boshdan kechirgan ijtimoiy munosabatlarni (*Cap o'Rushes*) tashkil qiladi. Ingliz diskursining yakka nominativlardan tashkil topgan presuppozitsiyasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'zbek folklor diskursidan farqli o'laroq, yagona nominativdan iborat sarlavhalar nafaqat ijobiy qahramonlarga aloqador bo'ladi, balki kitobxonlarda salbiy assotsiatsiya uyg'otuvchi qahramonlarga ham taalluqlidir (*Mr. Fox, Mr. Miacca*). Shu bilan birgalikda, ularning ba'zilar bosh qahramon bilan bog'liq toponimlar bilan ham ifodalanadi: *Binnorie*.

Boshqaruv hamda moslashuv ko'rinishidagi sarlavhalar o'zbek ayollari narratsiyasi syujetida qahramonlar ijtimoiy munosabatiga ochiq-oydin ishora qilmaydi (*Podachining qizi*). Bir so'zdan tashkil topgan sarlavhalar ham ayollar diskursida ma'lum ma'noda didaktik xarakterga ega: *Pufakvoy*.

"Va", "bilan" bog'lovchilari orqali bitishuv yo'li bilan yasalgan sarlavhalar presuppozitsiyasida esa erkak narratorialari repertuaridan farqli o'laroq, tarbiyaviy-didaktik ahamiyat ustunlik qiladi (*Navoiy bilan mardikor, Navoiy bilan cho'pon, Xasis boy va uning o'g'illari, Witch and Hare, Jack and the Beanstalk*).

Folklor diskursining presuppozitsion tahlili folklor matnlarini tushunish uchun asos bo'lgan yashirin (ifodalanmagan) bilimlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunda ertaklar, afsonalar va maqollarga singdirilgan dunyo, jamiyat va odamlar haqidagi yashirin taxminlar oshkor bo'ladi, folklor qahramonlarining gender rollari aniqlanadi, shu bilan birga, ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy kodlar bilan bog'liq an'analarning tilga uyg'unligi tavsiflanadi. Ushbu presuppozitsion strukturalarni tahlil qilish orqali folklor o'z sohiblari, tinglovchilari hamda narratorialarining dunyoqarashini qanday shakllantirganini va uni tilga qanday aks ettirganini yaxshiroq tushunish mumkin. Bu esa nafaqat folklor diskursining o'zini, balki u yaratilgan madaniyatni ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yule G. Pragmatics. — Oxford: Oxford University Press, 1996.
2. Maxmudov Sh.A. O'zbek tilida leksik presuppozitsiyaning ifodalanishi: filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. — Qo'qon, 2022. — 56 b.